

AHOLINI O'SIB BORISHI VA ULARNING DAROMADLARI TABAQALASHUVINI KAMAYTIRISH ISLOHATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Sultonov Sirojiddin Normurolovich

katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM

Annotatsiya. Aholini ijtimoiy tabaqalashuvi va ularni turmush darajasini yaxshilash, tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan. Bundan tashqari aholi daromadlarining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi masalalarining hal qilinishi nafaqat muhtojlarga farovon turmush darajasi ta'minlanadi. Norasmiy sektorda ma'lum ma'noda bandlikning ta'minlanishi xodimlar ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Mamlakatimizda aholi daromadlarni tabaqalashuv darajasining kamaytirish maqsadidada jismoniy shaxslar daromadlariga nisbatan progressiv soliq stavkalarini o'rnatilishi. Tadbirkorlik faoliyati orqali yangi ish o'rinlar va daromatlarini oshirishga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: Transfertlar, proressiv soliq stavkalari, norasmiy sektorlar.

Kirish

Aholini ijtimoiy tabaqalashuvi har qanday bozor iqtisodiyoti uchun xos bo'lib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat aholini turmush farovonligini oshirish maqsadida daromadlar tengsizligini kamaytirish, ijtimoiy tenglikni me'yoriy darajada ta'minlab turish vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi masalalarining hal qilinishi nafaqat muhtojlarga balki "boylarga" ham tegishlidir. Ijtimoiy siyosiy nafaqat aholining muhtoj qatlamlarini farovon turmush darajasini ta'minlab qolmasdan balki birinchi navbatda muntazam rivojlanib borayotgan jamiyat uning turli iste'mol darajasiga va shunga muvofiq turli turmush darajasiga ega guruhlar o'rtasida barqaror muvozanatni saqlab turishning amaliy va samarali mexanzmini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy siyoatning bosh maqsadlaridan biri turli iste'mol va turmush darajasiga ega aholi guruhlarining muvozanatlangan aholini ta'minlash va saqlash turidir. Shuningdek ijtimoiy siyosat:

-daromadlarni qayta taqsimlash hisobotiga har bir insonga "mutadil" turmush darajasini ta'minlash;

-aholini ijtimoiy jihatdan nochor guruhlarini alohida oilalar va shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshirishga yo'naltirish.

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish ma'lumotlaridan barqaror rivojlanish maqsadlari tahlili va monitoringida foydalanib, barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish birinchi milliy maqsad «Temir daftar» har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha mutlaqo yangi tizimi yaratilishi jumladan:

«Ayollar daftari» ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha xarlovdan o'tkazilishi.

“Mahallabay” ishlash tizimi aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash, yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko'maklashilayotgani.

Mahalla pasporti-mahalla hududida joylashgan xonadonlar, ularda yashovchi aholi tarkibi, ijtimoiy soha ob'yektlari, mavjud resurslar, yermaydonlari, bo'sh bino va inshootlar, infratuzilma ob'yektlari, shuningdek faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olgan yig'ma jadvallarni shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabrda "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi 1011-sonli qarori samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga erishishda hozirda, Ishsizlik darajasi umumiy 10.5%, Yoshlar 17.0%, Ayollar 13.7% tashkil etganligini misol tariqasida ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy islohatlar olib borayotgan har bir davlat ijtimoiy mutanosiblikni ta'minlash va aholi daromadlarini tengsizligini kamaytirish hamda shu orqali turmush farovonligini oshirishning eng muqobil yo'li bu aholini bandligini oshirishdir. Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash masalasi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish hisobiga hal etilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Aholi daromadlari tabaqalashuvini kamaytirish borasidagi islohatlarni takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi «Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3182-son qarori barcha ustuvor yo'nalishlarni belgilab berilgan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amaliy ro'yobga chiqarish doirasida qabul qilingan 20 dan ortiq qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 180 dan ortiq farmonlari va 450 dan ortiq qarorlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning so'zsiz, o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlash hozirgi bosqichda ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblangan.

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.01.2023 yildagi Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarori PQ-15-son qaroriga muvofiq

- 1) tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish.
- 2) ishbilarmonlik muhitini va investisiyaviy iqlimni yaxshilash dasturlarini ishlab chiqish.
- 3) tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.
- 4) tadbirkorlarni o'qitish va kadrlarni tayyorlash.
- 5) davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik.
- 6) tashqi iqtisodiy faoliyat va investisiyalarni jalb qilish belgilab berilgan.

Veneskiy I.G. Matematicheskiye metody v demografii.- M., 1971., Demografik modellashtirish usullari takror barpo bo'lishi jarayonlarida tahlil qilish va prognozlashda keng qo'llanilgan. Ular aholining o'zgarishini yoki uning rivojlanish tarkibiy qismlarining o'zgarishini tavsiflab beradi. Demograviyada demografik jadvallar ko'rinishdagi muqim aholi va barqaror aholi modellari, shuningdek, faraziy avlod uchun demografik jarayonlarning raqamli modellari, stoxastik (ehtijoj) modellari va hokozolarni ham keng qo'llanilgan. Demografik bilimlar rivojlanishining hozirgi davr bosqichi unda matematik modellashtirish usullari va uslublarining tez rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Jumladan, ijtimoiy boshqarish amaliyotda ushbu bilimlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib borishi, ushbu usullarning barchasi ma'lum bir demografik hodisaning ommaviy ko'rinishiga asoslanadi. Shuning uchun demografiya uslubiyatida demografik hodisalarning miqdoriy o'lchovlariga nisssssbatining tahlil va o'rganish usullari muhim ahamiyat kas etgan. Aholi yoshi-jinsi tarkibini yoqqol namoyon etish uchun yosh-jins piramidasi qo'llanilgan. Buni tuzish uchun esa vertikal o'qda yosh, chapda-yoshlarni bo'yicha erkaklar, o'ngda-ayollar yoshi bo'yicha taqsimlanadi. O'lchov birligi sifatida, besh yil qabul qilingan.

Soliqlar to'g'risidagi qarashlar tarixan ob'yektiv va sub'yektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliq tizimining o'zgarishi va takomillashtirilishi soliqning turi, miqdori va yig'ib olish usullari xilma-xil bo'lganligi bilan asoslanib kelingan. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Ayrim iqtisodchilar soliqlarni milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi sifatida, "Soliqlar – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir" deb izohlaganlar. N.I.Turgenev o'zining "Soliq nazariyasi tajribasi" nomli kitobida (1818 yil) shuni ta'kidlaydiki, "Bilimli bo'lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf-odatlariga foydali ta'siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta'sir etgan", "...soliqlar bilimga ega bo'lish bilan birga paydo bo'lib, uning belgisi bo'lib qoldi.Soliqlarning tayinlanishi, taqsimlanishi va yig'ilish usuliga qarab xalq orasida tarqalgan ma'lumotlar to'g'risida; yig'iladigan soliqlar miqdoriga qarab uning boyligi haqida fikr yuritish mumkin, bu bilimlilik va ma'rifatni anglatadigan ikkita eng asosiy xususiyatdir" bu so'zlardan yana bir bor amin bo'lish mumkinki, soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil № 2, 2017 www.iqtisodiyot.uz 4 ta'minlash va ular oldida turgan vazifalarni bajarilishini moddiy ta'minlashning manbasi sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funksiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Shotlandiyalik iqtisodchi Adam Smit (1723-1790) o'zining "Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari" nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi. O'z navbatida A.Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlantirgan D.Rikardo "Soliqlar - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi" deb soliqlar mohiyatini yoritib bergan. Yana bir maqbul ta'rif S.G.Pepelyayev tomonidan berilgan: "Soliq – ommaviy hokimiyat sub'yektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontribusiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir". Professor D.G.Chernikning fikricha "Soliqlar – davlat tomonidan xo'jalik sub'yektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarida undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi". Sh.Gataulin "... soliqlar o'zi nima, ular nimaga kerak" degan savolga quyidagicha javob beradi: "Soliqlar – bu davlat sarf xarajatlarining asosiy manbai bo'lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqarorlashtiruvchi vositadir. Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi" deb o'z fikr mulohazalarini bildirgan. Shuni ta'kidlash kerakki, professor O.Olimjonovning fikriga ko'ra soliqlar quyidagicha ta'riflansa, soliqlarning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo'ladi. "Soliqlar – Davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir". "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil № 2, 2017 www.iqtisodiyot.uz 5 Soliqlarga doir fikrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular asosan davlat xazinasini to'ldiruvchi vosita sifatida qaralgan va iqtisodiy fikrlar shakllanishi va rivojlanishida ularning fiskal jihatidan kelib chiqqan holda baho berilgan. G'arb iqtisodchilarining nazariyalari angliyalik iqtisodchi J.M.Keynsning konsepsiyasiga asoslanadi. By konsepsiyaga ko'ra, soliqlar fiskal funksiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funksiyalariga ega, soliqning bu funksiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi. Neokeynschilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L. Xarrot, N. Kaldor, A. Xansen va P.Samuelsonlarning fikriga ko'ra, soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli imtiyozlar berish yo'li bilan bu funktsiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar. Ingliz iqtisodchisi S.Parkinson so'zi bilan aytganda: "Soliqlar ko'hnadir – xuddi dunyodek, uning yuzaga kelishida qachondir bir mahalliy qo'mandon o'z hududida joylashgan daryo yoki tog'dan savdogar hamda sayohatchi o'tsa ulardan haq olishi sabab bo'lgan". 1.Soliqlar va yig'imlar majburiy bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchining bir qism daromadlarini majburiy badal sifatida byudjetga olib qo'yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi. 2. Soliqlar xazinaga davlat byudjetiga

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

tushadi. Ammo boshqa turdagi to'lovlarning jamg'armalarga tushishi soliq munosabatlarini aks ettirmaydi. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil № 2, 2017 www.iqtisodiyot.uz 6 3. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixan asrlab o'zgarmay harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Uning ilmiy asosi qancha chuqur bo'lsa, shuncha qat'iy va uzoq yillar o'zgarmasdan harakat qiladi. 4. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga to'liq qaytmaydi, ya'ni u ekvivalentsiz pul to'lovidir.. Soliqlar uzoq davr mobaynida jamiyat tomonidan yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish uchun undiriladigan asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Shuningdek, soliqlar davlatning barcha davlat miqyosidagi chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy moliyaviy manbalardan biri bo'lib mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida va belgilangan islohotlarni amalga oshirishda asosiy vositadir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar deganda soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi. Demak, soliqlar – bu byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan huquqiy va me'yoriy qonunlar bilan ta'minlanadi. Shunday ekan, soliqlarni to'lamaslikka, soliq ob'yektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko'rsatishga soliq to'lovchilarning haqqi yo'q. Bizga ma'lumki, raqobatli bozor tizimi resurslarni shunday tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltiradiki, ularga hammadan ko'ra ko'proq jamiyat ehtiyoj sezadi, aynan shu faoliyat rivojiga bilvosita soliqqa tortish mexanizmi salbiy ta'sirga ega bo'ladi

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish ma'lumotlaridan barqaror rivojlanish maqsadlari tahlili va monitoringidan, savdo-sanoat palatasi, statistika agentligi, soliq stavkalarini hozirgi zamon ko'rsatkichlaridan foydalanildi hamda mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar qo'llanmalarda keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2023 yilda amalga oshirilgan ishlar natijasida, Statistika agentligi tomonidan o'tkazilgan 16 ming ta uy xo'jaliklari kuzatuvlariga ko'ra, mamlakatimizda kambag'allik darajasi 2023 yil yakunida 11,0 foizgacha pasaydi.

Mamlakatimizda o'tgan yilga nisbatan 3,1foizga kambag'allik qisqargani, 2022 yil natijalarida kambag'allik darajasi 14 foizni tashkil etganligi. Kambag'allikning pasayishi barcha viloyatlarda qayd etilganligiga ko'ra, Sirdaryo (19,5% dan 13,8% gacha), Andijon (17,4% dan 11,9% gacha) viloyatlari va Qoraqalpog'istonda (19,9% dan 13,7% gacha) sezilarli darajada qisqargan.

Minimal o'zgarishlar Toshkent shahri (8,5% dan 7,9% gacha) va Buxoro (11,9% dan 11,8% gacha), Qashqadaryo (12,7% dan 11,5% gacha) viloyatlarida aniqlangan.

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

Ma'lumot uchun: 2023 yilda jami 4,1 mln aholi, shundan 2,3 mln nafari doimiy va mavsumiy ish o'rinlarida, 112,8 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlarida, 1,6 mln aholi o'zini o'zi band qilish hisobiga bandligini ta'minlashga erishildi.

Hokim yordamchilari ko'magida 241,3 ming nafar fuqarolarga ijara asosida yer maydonlari ajratilgan:

- "20 ming tadbirkor 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasida 6 745 ta tadbirkorlik sub'yektlari bilan 455 ming nafar aholini badligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolanganligi:

- shuningdek, 472 mingta oilaviy tadbirkorlik loyihalariga 10 trln. so'm imtiyozli kreditlar va 73 ming nafar ishsiz fuqarolarga 356 mlrd. so'm subsidiya mablag'lari ajratilishi:

- mahallabay ishlash asosida 51 mingta mikroloyihalarni amalga oshirilishi natijasida 206 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi:

- 181 ming nafar ishsizlar fuqarolar kasb-hunarga o'qitildi va 183,8 mingta yangi tadbirkorlik sub'yektlari tashkil etildi:

- inflyasiya darajasidan kelib chiqib, 2024 yil uchun hisoblangan MIX (minimal iste'mol xarajatlari) qiymati 621 ming so'mni tashkil etganligi:

- kambag'al oilalarni "Individual dastur"lar tuzish orqali 2023 yilda 208 ming oilaning 873 ming oila a'zosi kambag'allikdan chiqarilgan bo'lsa, 2024 yilda kambag'allikdan 150 ming oila (va uning 700 ming oila a'zosi) chiqarilishi rejalashtirilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat resurslarining ma'lum bir qismi norasmiy sektorda band bo'lishadi. Norasmiy sektorda ma'lum ma'noda bandlikning ta'minlanishi xodimlar ijtimoiy huquqlarini himoya qilmaydi. Natijada xodimlar ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olinmay qoladi. (nafaqa, nafaqa huquqi, kasallik va dekret ta'tili). Norasmiy bandlikni yanada qisqartirish va amaldagi bandlikni qonuniylashtirish ayniqsa o'z faoliyatini boshlayotgan tabirkorlik sub'yektlari orasida muhim omil hisoblanadi.

Mehnat bozorida mavjud muammolar, jumladan: ko'p mehnat talab qiluvchi tarmoq va korxonalarning ustuvor rivojlanishi, ayniqsa qishloq joylarda ishchi kuchining hududiy va tarmoqlararo harakatchanligining o'sishi sharoitida mehnat resurslarining qonuniy va ijtimoiy himoyalangan epsporti yo'li bilan bandlikni oshirish uchun huquqiy asoslarni yaratish aholi turmush farovonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Bundan tashqari hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yetlarini ularning tajribasidan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'yetlariga qo'shimcha daromadlarlarini inobatga olib, boshqa turdagi ya'ni turdosh maxsulotlarni ishlab chiqarishda keng ko'lamli shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Yetarli malaka va amaliyotga ega belgan muntazam 3-5 yillar davomida tadbirkorlik sub'yetlarida faoliyat yuritgan xodimlarga imtiyozli kreditlar ajratish va

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

ularni malakasidan foydalanib yangi tadbirkorik faoliyatini yo'lga qo'yishda barcha imkoniyatlardan foydalanib, yangi ish o'rinlar sonini kengaytish lozim.

Aholi demografik joylashuviga qarab, zinch joylashgan hududlarda aholi tomorqalarida yetishtiriladigan mahsulotlarni turiga qarab, aholiga yaqin hududlarda korxona va firmalar qurilib, aholi tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni takror ishlab chiqish, qadoqlash orqali aholi daromatlarini oshirishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Aholi ishsizlik yuqori bo'lgan hududlarda keng ko'lamli xizmat ko'rsatish sohalarni rivojlantirish va ularni kasbga doir yirik korxonalarni kichik tarmoqlarini ishsizlik yuqori bo'lgan hududlarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda aholi daromadlarni tabaqalashuv darajasining kamaytirish maqsadidada jismoniy shaxslar daromadlariga nisbatan progressiv soliq stavkalarini o'rnatilgan. Proressiv soliq stavkalarida daromad, ya'ni soliq bazasi oshib borishi bilan stavkalar ham oshib boradi. Proressiv soliq stavkasi oddiy va murakkab ko'rinishda bo'lib, oddiy ko'rinishda soliqning stavkasi daromadning barcha qismi uchun ortadi, murakkab ko'rinishda esa soliq to'lovchining daromadi qismlarga bo'linadi va uning har bir qismiga nisbatan tegishli soliq stavkasi qo'llaniladi.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadlaridan soliqlar murakkab proressiv soliq stavkalari orqali undiriladi va bu aholining past daromad oluvchi qatlamiga nisbatan soliq yukini kamayishiga hamda ularning ixtiyoridagi daromadlari oshishiga olib keladi. Yuqori daromad oluvchi aholi daromadlarining belgilangan miqdordagi oshgan qismigigagina yuqori stavkalarda daromad solig'i hisoblanadi. Bu orqali aholi daromadlari oshishini cheklamasdan turib, yuqori daromad oluvchilar va past daromad oluvchilar daromadlari o'rtasida farqni kamaytirishga erishiladi.

Mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirish va daromadlar tabaqalashuvi darajasini kamaytirish borasida olib borilayotgan barcha yo'nalishlardagi islohatlar bugungi kunda o'z samarasini berib kelmoqda va bugungi kunda kelib aholi daromadlarining tabaqalashuvi darajasini me'yoriy darajasiga yetkazishga erishildi. Aholi daromadlari tabaqalashuvi bo'yicha mavjud vaziyat hisobga olib, daromadlar tengsizligi darajasini yanada kamaytirish, aholini pul daromadlarini oshirish va ijtimoiy himoyalashni ta'minlash maqsadlarida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi lozim:

- aholi bandligini muttasil oshirib borish;
- tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish orqali bo'sh ish o'rinlarini yaratish va aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish choralarini ko'rish;
- norasmiy sektor sub'yektlari faoliyatini legallashtirish orqali ularda band bo'lgan xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

- aholini o'z mulki va shaxsiy tomoqlaridan tadbirkorlik faoliyatida foydalanib, daromad topish imkoniyatlarni kengaytirish;
- aholini ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy transfertlar bilan ta'minlash hamda ularning miqdorini indeksatsiyalab borish;
- daromadlari va mulkning aholining mahlum bir guruhlarini ixtiyorida to'lanishini oldini olish maqsadida aholi daromadlari mulkiga nisbatan oqilona soliq siyosatini yuritish.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi «Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3182-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.01.2023 yildagi Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarori PQ-15-son qaroriga muvofiq
3. Veneskiy I.G. Matematicheskiye metody v demografii. – M., 1971.
4. Kolesnikova M.I. Sosialno-ekonomicheskaya statistika. - M.: 000 Novoye znaniye, 2002.
5. Niyazmetov I. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: Moliya, 2016. – 192 b.
6. Temur tuzuklari. T.: Cho'lpon, 1991 y. 98 b.
7. O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Mehnat", 1995 y. 377-b.
8. Turgenev N.I. Soliq nazariyasi tajribasi.- Sanktpeterburg – 1818 y.
9. Rikardo D. Sochineniya T. I. Nachalo politicheskoy ekonomiki i nalogovogo oblojeniya. Per. s angl. - M.: Gospolitizdat, s 360.
10. Pepelyayev S.G. Osnovy nalogovogo prava. M.: 1995, s 496.
11. Politicheskaya ekonomiya. Tolkovyy slovar. M.: Politizdat, 1990. s 330.
12. Chernik D.G. Nalogi v rymochnoy ekonomike//Finansy. – 1992. – №3 s 161.
13. Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996 y.
14. Jo'rayev A., Meyliyev O., Safarov G'. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004. – 166 b.

15. Parkinson S. Zakon i doxodы. – M.: PKK. Interkontakt, 1992 – s 100.
16. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent. O‘zbekiston, 1998 y. 358 b.
17. Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: G‘afur G‘ulom, 2000 y. 10-bet
18. Alimardonov M.I., Xudoyqulov S.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. Toshkent-2013
19. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: Adolat, 2016 y.- 428 bet.
20. <http://analytic.nalog.ru/portal/index.ruRU.html>,
<http://treasury.gov/about/budgetperformance/FY14Factsheet.pdf>,
21. <http://minfin.gov.kz/irj/>,
22. <http://bundesfinanzministerium.de/Web/EN/Issues/> <http://mf.uz> saytlari ma’lumotlari